



YOSHLAR BANDLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY OMILLAR (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Qurbonboyeva Farzona Farhodjon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: farzonaqurbonboyeva123@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezis O'zbekiston sharoitida yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni sotsiologik tahlil qilishga bag'ishlangan. Hozirgi globalashuv va mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida yoshlarning barqaror ish bilan ta'minlanishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda yoshlarning bandlik holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — ta'lim sifati va darajasi, kasbiy tayyorgarlik, hududiy (shahar va qishloq) tafovutlar, gender tengsizligi, oilaviy-iqtisodiy sharoit hamda ijtimoiy kapitalning roli tizimli ravishda o'rganiladi.

Ilmiy tezis xulosalarida yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish hamda yoshlarning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Yoshlar bandligi, mehnat bozori, ijtimoiy omillar, shahar va qishloq tafovuti, ta'lim va bandlik, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy tengsizlik, rasmiy va norasmiy bandlik, mehnat migratsiyasi, davlat bandlik siyosati.

Аннотация. Данный научный тезис посвящён социологическому анализу социальных факторов, влияющих на занятость молодёжи в условиях Республики Узбекистан. В условиях глобализации и трансформации рынка труда обеспечение устойчивой занятости молодёжи является одним из ключевых показателей социально-экономического развития общества. В исследовании системно рассматриваются основные факторы, влияющие на



уровень занятости молодёжи, такие как уровень и качество образования, профессиональная подготовка, территориальные различия (город–село), гендерное неравенство, социально-экономическое положение семьи, а также роль социального капитала.

В выводах научного тезиса разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию институциональных механизмов повышения занятости молодёжи, укреплению взаимосвязи между системой образования и рынком труда, а также стимулированию социальной активности молодёжи.

Ключевые слова. Занятость молодежи, рынок труда, социальные факторы, различия между городом и селом, образование и занятость, профессиональная подготовка, социальное неравенство, формальная и неформальная занятость, трудовая миграция, государственная политика занятости.

Annotation. This scientific thesis is devoted to a sociological analysis of social factors influencing youth employment in the context of the Republic of Uzbekistan. In the conditions of globalization and transformation of the labor market, ensuring sustainable youth employment is one of the key indicators of socio-economic development of society. The study systematically examines the main factors affecting youth employment, including the level and quality of education, professional training, territorial disparities (urban–rural), gender inequality, family socio-economic conditions, and the role of social capital.

The conclusions of the scientific thesis present scientific and practical recommendations aimed at improving institutional mechanisms for increasing youth employment, strengthening the link between the education system and the labor market, and stimulating youth social activity.



Keywords. Youth employment, labor market, social factors, urban–rural disparities, education and employment, professional training, social inequality, formal and informal employment, labor migration, state employment policy.

Bugungi kunda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar mehnat bozorining eng faol va ayni paytda eng himoyaga muhtoj qatlami bo'lib, ularning bandlik darajasi jamiyat barqarorligi, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda mehnat munosabatlarining transformatsiyasi sharoitida yoshlarning barqaror ish bilan ta'minlanishi dolzarb ijtimoiy muammoga aylanmoqda.

O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning dolzarbligi aholining yosh tarkibi bilan bevosita bog'liq. Mamlakat aholisining qariyb chorak qismini yoshlar tashkil etar ekan, ularning mehnat bozoriga samarali integratsiyalashuvi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, shahar va qishloq hududlari o'rtasida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar yoshlar bandligida sezilarli farqlarni yuzaga keltirmoqda. Shahar joylarda ta'lim, infratuzilma va ish o'rinlarining ko'pligi yoshlarning rasmiy bandlikka jalb etilishiga imkon yaratsa, qishloq hududlarida ish o'rinlarining cheklanganligi yoshlar orasida ishsizlik va norasmiy bandlikning yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, yoshlar bandligiga ta'lim darajasi, kasbiy tayyorgarlik, hududiy joylashuv, gender omili, ijtimoiy kapital va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik dasturlari kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq holda yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini belgilab beradi hamda shahar va qishloq yoshlari bandligi o'rtasidagi tafovutlarni chuqurlashtiradi.

Mazkur ilmiy ishning maqsadi O'zbekiston misolida yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillarni aniqlash va ularni sotsiologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy



siyosatni takomillashtirish hamda shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi bandlik tafovutlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori orqali yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratib berildi. "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" kabi o'z kategoriyalariga ega dasturlar ishlab chiqilishi umumiy yoshlar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish hamda har bir yosh bilan individual ishlar olib borishga imkon beradi. Shuningdek, yoshlarni band qilish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun zaruriy tavsiyalar berilgan[1].

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlarining "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" bo'limida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha bir qancha istiqbolli yo'nalishlar belgilab qo'yilgan [2]. Yoshlar bandligining yuqori darajasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish uchun muhimdir. Ta'lim, malaka va ko'nikmalarning zamon talablariga mos bo'lishi yoshlarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi. O'z navbatida, malakali ishchi kuchi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi kvotalari ko'paytiriladi:

✓ Dunyoning nufuzli "Top-100" oliygohlariga milliy darajada imtihon topshirib o'qishga kirgan 35 yoshgacha bo'lganlarga uy-joy xaridi uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi;

✓ Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida final va sovrindor bo'lganlar uchun bir martalik mukofot miqdori ikki barobar oshiriladi.

✓ Xorijiy oliygohlarga milliy imtihon orqali o'qishga kirganlarga "Oliy bo'g'in talabalari" davlat stipendiyasi joriy etiladi.

Yoshlar bandligiga ta'sir o'tkazuvchi omillar:

I. Iqtisodiy Omillar:



Iqtisodiyotning holati: Ishlab chiqarishning o'sishi yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Sarmoya va investitsiyalar: Biznesni rivojlantirish, yangi korxonalarni ochish imkoniyatini beradi.

Sohaviy rivojlanish: Agrotexnologiya, IT, xizmat ko'rsatish kabi yangi tarmoqlar bandlikni oshiradi.

II. Ijtimoiy-Ta'limiy Omillar:

Ta'lim tizimi: Zamonaviy bozor talablariga mos bilim va kasbiy ko'nikmalar berilishi.

Kasb-hunarga yo'naltirish: Yoshlarni to'g'ri yo'naltirish va ularning qiziqishlariga moslashtirish.

Qo'shimcha ko'nikmalar: Muloqot, jamoada ishlash, rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish.

III. Siyosiy-Huquqiy Omillar:

Davlat dasturlari: Yoshlarni ishga joylashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari.

Qonunlar va qoidalar: Yoshlar uchun qulay ish berish shart-sharoitlarini yaratish.

Demografik Omillar: Yoshlar soni: Ishga kiruvchi yoshlar sonining ko'pligi ish o'rinlariga talabni oshiradi.

Shaxsiy Omillar: Motivatsiya va intiluvchanlik: Yoshlarning o'z ustida ishlashga intilishi.

Qobiliyat va iste'dod: Har bir shaxsning o'z imkoniyatlari.

Bu omillar jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi uchun muhim bo'lib, ularni kompleks hal qilish yoshlar bandligini samarali ta'minlashga yordam beradi[3].

2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi 37,5 milliondan oshgan, shundan 19,1 millioni shahar, 18,4 millioni qishloq aholisini



tashkil etadi. Bu shahar aholisi qishloq aholisi bilan solishtirganda taxminan 728,4 ming kishiga ko'p ekanini ko'rsatadi[4].

Yoshlar (14–30 yosh) respublika aholining katta qismiga to'g'ri keladi — taxminan 9,63 million kishi, ya'ni jami aholi tarkibining 25,7 % ini tashkil qiladi.

2025-yilda ishchi kuchi bozoriga kirayotgan yoshlar sonining o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, 2025-yilning o'rtalariga kelib 14,6 milliondan ortiq odam iqtisodiyotda band bo'lib, 800 mingga yaqin fuqaro ishsiz deb hisoblangan.

Global va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar bandligi shahar va qishloq joylarda sezilarli darajada farq qiladi: shahar yoshlarining band bo'lishi xizmatlar, sanoat va rasmiy sektorlar orqali ko'proq, qishloq yoshlari esa asosan qishloq xo'jaligi yoki norasmiy iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lishga majbur. Masalan, Jahon bankining tadqiqotiga ko'ra, qishloq hududlarda yoshlar orasida ish topish imkoniyati past, bu sohada norasmiy yoki yordamchi ishlar ko'proq tarqalgan[5].

Bundan tashqari, shahar va qishloq yoshlarining raqamli resurslar va imkoniyatlarga kirish darajasi ham sezilarli farq qiladi: shahar yoshlari raqamli bandlik platformalaridan foydalangan holda ish topish imkoniyatiga nisbatan yuqori darajada ega bo'lsa, qishloq yoshlari bu imkoniyatlardan kamroq foydalanadi[6].

Bu statistik tendensiyalar sotsiologik tadqiqotlar uchun muhim bazaviy asos bo'lib, shahar–qishloq yoshlar bandligi taqsimoti, band bo'lish sharoitlari va ijtimoiy imkoniyatlar tafovutini chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot O'zbekiston sharoitida yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni sotsiologik jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari yoshlar bandligi darajasi shahar va qishloq hududlari kesimida notekis taqsimlanganini ko'rsatdi. Shahar joylarda yoshlarning rasmiy va barqaror bandlik imkoniyatlari yuqori bo'lib, bu holat ta'lim darajasi, mehnat bozorining rivojlanganligi va infratuzilma sharoitlari bilan izohlanadi. Qishloq hududlarida esa ish o'rinlarining cheklanganligi, norasmiy bandlikning keng tarqalganligi hamda



kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi yoshlar bandligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tahlil jarayonida ta'lim sifati, hududiy joylashuv, gender omili, ijtimoiy kapital va davlat bandlik siyosati yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvida muhim omillar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, qishloq yoshlarining mehnat migratsiyasiga moyilligi bandlikdagi hududiy tengsizlikning ijtimoiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat yoshlar orasida ijtimoiy moslashuv muammolari va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, yoshlar bandligini oshirish va shahar hamda qishloq hududlari o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish uchun ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirish, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish, kasb-hunar tayyorgarligini rivojlantirish hamda yoshlarni bandlikka jalb etishda davlat va jamiyat institutlari hamkorligini mustahkamlash zarur. Tadqiqot natijalari yoshlar bandligiga oid ijtimoiy siyosatni takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 30.06.2020-yildagi PQ-4768-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. kun.uz
4. Qalampir.uz
5. UzDaily.uz + 1
6. advancedscienti.com